

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI
XORIJIY TIL VA ADABIYOTI QUYYI KURSLAR KAFEDRASINING
2024-YIL 24-DEKABRDAGI
9-SONLI YIG'ILISH BAYONNOMASIDAN KO'CHIRMA

2024-yil 24-dekabr

Denov tumani

Yig'ilish raisi: V.A. Tangriyev

Yig'ilish kotibi: M.A. Temirova

Qatnashdilar: Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrasi professor-o'qituvchilari

KUN TARTIBIDA:

1. Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrasi mustaqil tadqiqotchilarining 2024/2025 o'quv yilida bajargan ishlari bo'yicha hisobotlari.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi **masala** yuzasidan kafedra qoshida faoliyat yuritayotgan mustaqil tadqiqotchilarning ilmiy ishlari va natijalari bo'yicha hisobotlar eshitildi. Ularning izlanishlari davomida yuzaga kelgan muammolar va yechimlar muhokama qilindi. Birinchi navbatda Xo'shboqova Nasibaning tadqiqot olib borilayotgan "Ingliz va o'zbek tillarida yo'l belgilariga oid terminlarning chog'ishtirma tadqiqi" mavzusidagi ilmiy ish bo'yicha hisoboti tinglandi.

Nasiba Xo'shboqova ilmiy izlanishlari doirasida birinchi bobni to'liq yakunlagan. Ushbu bobda tadqiqotning nazariy asosi yoritilgan bo'lib, mavzuga oid muhim tahlillar keltirilgan.

Undan tashqari mustaqil tadqiqotchi joriy o'quv yilida ilmiy ish mavzusiga oid 1ta nufuzli OAK (Oliy attestatsiya komissiyasi) jurnalida maqola chop ettirdi. Ushbu maqolalar tadqiqotining dolzarbligi va ahamiyatini ta'kidlab, ilmiy jamiyat tomonidan e'tirof etilgan.

Xo'shboqova Nasiba Chet tili (nemis tili) imtihonidan muvaffaqiyatli o'tganligi haqida ma'lumot berdi. Ilmiy faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida, nemis tilidan imtihon topshirib, muvaffaqiyatli natija qayd etdi. Bu esa uning xorijiy manbalarni o'rganish imkoniyatini kengaytiradi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan yig'ilish
QAROR QILADI:

1. Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrasi mustaqil tadqiqotchilarining hisobotlari namunali deb topilsin.

2. Mustaqil tadqiqotchilar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni nazorat qilish va ular uchun zarur sharoit yaratish tavsiya etilsin.

Yig'ilish raisi:

Yig'ilish kotibi:



V.A. Tangriyev

M.A. Temirova